# MADANIY KODLAR TIZIMIDA XORAZM VOHASI AHOLISINING ETNOGRAFIK QIYOFASI

**Matchanova Sanobar**
Urganch Davlat Universiteti Tarix kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Xorazm vohasining o‘ziga xos madaniy kodlari va ularning etnografik qiyofasi haqida ma’lumot beriladi. Tadqiqotda qiyosiy usul, tarixiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish va sintez usullaridan foydalanildi. Maqolada vohaning o‘ziga xosliklari uning etnografik qiyofasida aks etishi madaniy kodlarning boshqa hududlarnikiga o‘xshamagan jihatlari mavjudligi yoritildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *“Lazgi” “Suvora”, “Tuxumbarak”, “Gumma” baxshichilik, quroqchilik.*

imrconf.com

Xorazm vohasi o‘zining qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va etnografik xususiyatlari bilan Markaziy Osiyoning muhim madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Vohada shakllangan urf-odatlar, marosimlar, xalq og‘zaki ijodi, kiyinish madaniyati va diniy qarashlar xalqning madaniy kodlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy kod – bu jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy xazinasini tashkil etuvchi, xalq ongida asrlar davomida shakllangan ramzlar, belgilar, urf-odatlar va qadriyatlar majmui hisoblanadi. U insonlarning dunyoni idrok etish usuli, til, din, san’at, xalq og‘zaki ijodida o‘z ifodasini topadi [1. B 63.] Corazm vohasida bu kabi madaniy kodlar ya’ni xalqnng o‘ziga xosligini bildiruvchi idintifikatsiyalari ko‘plab uchraydi va ularning ba’zilari haqida alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

*"Lazgi"*. Xorazmning musiqiy va harakatli timsoli. Bu shunchaki raqs emas, balki xalqning hayotiyligi, mardligi va qaysar tabiatini ifodalovchi, insonni ruhan tetiklashtiruvchi va harakatga undovchi noyob madaniy koddir. Xorazm lazgisi — bu Xorazm vohasining o'ziga xos iqlimi, tabiati, xalqining turmush tarzi va ruhiy holatini teran aks ettiruvchi milliy raqs san'ati shaklidir. U asrlar davomida xalq orasida og'zaki an'analar asosida rivojlanib, har bir harakati, ritmi va uslubi bilan chuqur ma'no va hissiy yuklamani ifodalaydi. Bu raqs turi faqat estetik go'zallik emas, balki xalqning ichki dunyosi, hayotga bo'lgan munosabati, quvonchi, ba'zida esa dardini ham ko'rsatadi. Lazgi – oddiygina raqs emas, xalq ichidan yetishib chiqqan iste'dod egalaridan, san'at ta'limini olgan raqqosalardan alohida ijroni talab etuvchi katta bir raqs tizimidir [2. B. 140]. Xorazın raqsi "Lazgi" ning dastlabki elementlari inson tomonidan olov kashf qilingan davrda yuzaga kelgan. Quyi Amudaryo etaklarida yashagan xorazmiylar ushbu raqsning ijodkorlari sanaladi. Raqs ijrosida qo'l va oyoq harakatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda har bir ijrochi o'z qobiliyatiga yarasha ichki hissiyotini namoyish etishi mumkin. XX asrning o'rtalariga qadar faqat musiqa cholg'ulari jo'rligida ijro etilgan "Lazgi" raqsining 8 turi mavjud bo'lgan. Uning qo'shiq varianti bo'lgan "Yallali Lazgi" ilk bor atoqli san'atkor Komiljon Otaniyozov tomonidan ijro 106 etilgan va shu asosda hozirgi kungacha uning turli versiyalari yaratilib kelinmoqda [3].

*Xorazm Maqomlari:* Shashmaqomdan farqli o'laroq, o'zining g'oyatda tez ritmi, sho'x va dardli ohanglari bilan ajralib turadi. Ular voha aholisining falsafiy tafakkuri va boy ma'naviy olamini namoyon etadi. Xorazm maqomlarining aytim yo'llarida Taronalar ham qo'llanilib, bu o'rinda, ko'pincha «Suvora», «Naqsh», «Faryod» nomli ashulalar ishlatiladi. Biroq, Shashmaqomdagi Taronalardan farqli o'laroq, mazkur ashulalar anchayin rivojlanganligi, avj tuzilmalari qo'shilib ishlanganligi bilan ajralib turadi. Aytim yo'llari «Ufar» nomli qismlar bilan yakunlanadi [4. B 120].

imrconf.com

*Me'moriy va shaharsozlik merosi:* Ichan-Qala kabi yodgorliklar xorazmlik me'morlarning muhandislik mahoratini ko'rsatadi. Bu yerda islom me'morchiligining sharqona bezaklari o'ziga xos tarzda mujassamlashgan. Poydevor va shaklning qat'iyligi: Qadimgi Xorazm qal'alari (masalan, Tuproqqala, Jonbosqala va Ayazqala) to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shaklida, qat'iy geometrik loyihalar asosida barpo etilgan. Ikki qatorli mudofaa tizimi: Shahar va qasrlar qalin va baland mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, ular ko'pincha kamondan o'q otish uchun mo'ljallangan yo'laklar va jangovar tuynuklar bilan jihozlangan. Gumbaz va minoralarning uyg'unligi: Xorazm me'morchiligiga xos bo'lgan baland minoralarning qurilishi nafaqat kuzatuv vazifasini bajargan, balki shaharga ulug'vor qiyofa baxsh etgan.

*Gastronomik o'ziga xoslik:* Xorazm viloiyati o'zining o'ziga xos pazandalik mahorati bilan ham ajralib turadi. Voha pazandachiligida qadimgi ko'chmanchi va o'troq madaniyat uyg'unlashgan. Mashhur Xorazmcha "Tuxumbarak" (xamir ichida pishgan tuxum), "Gumma" (tandir somsa) va maxsus tayyorlanadigan patirlar vohaning mehmondo'stlik kodini belgilaydi. Bundan tashqari xalq marosimlarida tayyorlanadigan taomlar qatlama. Qormo, to'y oshi, qaynatma, biqtirma, moshova, moxora kabi taomlarni tayyorlash uchun maxsus tayyorgarliklar ko'riladi va retseptning miqdoriy o'lchovlariga qat'iy amal qilinadi [5. B 287].

*Xalq og'zaki ijodi va dostonchilik:* Xorazm baxshichilik maktabi o'zining ijro uslubi va qahramonlik dostonlarini avloddan-avlodga yetkazishi bilan ajralib turadi. Bu so'z san'ati orqali mardlik, vatanparvarlik va ezgulik qadriyatlari singdirilgan. Xorazm dostonchilik maktabi – baxshichilik san'ati markazlaridan biri. Xorazm dostonchiligida mavjud epik asarlar O'zbekistonning boshqa hududlaridagi o'zbeklar orasida tarqalgan dostonlardan mazmuni, uslubi, kompozisiyasi, obraz yaratish printsiplari bilan farq qiladi. Xorazm dostonchilik maktabida og'zaki va yozma adabiyot an'analarining o'zaro ijodiy hamkorligi sezilarli. Badihago'ylik asosiy 256 rol

imrconf.com

o‘ynamaydi, musiqa yetakchilik qiladi. Ko‘p hollarda aytuvchi qo‘lida dostonning qo‘lyozma matni bo‘ladi. Xorazmda epik asarlar 3-5 kishidan iborat baxshi ansambllari tomonidan ijro etiladi. Baxshi dostonni dutorda kuylaydi, unga g‘ijjakchi, bulamonchi jo‘r bo‘ladi [6. B 225].

*Moddiy madaniyat (Hunarmandchilik):* Yog‘och o‘ymakorligi (ayniqsa, qadimiy eshik va ustunlardagi naqshlar), do‘ppido‘zlik va gilamchilikda qadimiy tumor, suv, quyosh kabi tabiat elementlarini ifodalovchi qadriyatlar yashiringan. Bugungi kunda Xorazmda hunarmandchilikning turli xil yo‘nalishlari rivojlangan.

Shulardan, quroqchilik, yog‘ochdan xalq hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik yo‘nalishlaridir. Bugungi kunda yog‘ochdan xalq hunarmandchilik buyumlari tayyorlash (Xorrot) yo‘nalishi viloyatning Qo‘shko‘pir tumani, shixmashxad qishlog‘ida rivojlangan. U yerlik aholining deyarli 50 foizi shu hunar turi bilan shug‘ullanishadi.

Quroqchilik- viloyatning deyarli barcha tumanlarida rivojlangan. turna, archa, asal ari uyasi, quduq, kvadratka kuroqchilik turlari tikiladi. Yogoch o’ymakorligi – XIX asr boshlarida Xiva xonligida juda rivojlangan. X-asrda qurilgan Juma masjidida hozirgacha saqlanib qolgan yog’och ustunlar har bir kurgan kishini hayratga soladi. Mashxur yog’och o’ymakor ustalardan – Abdulla Jin, Mashirif naqqosh, Matkarim naqqosh, Momit urachi, Bolta urachi, Ota Polvonov, Sapo Bogibekov, Bogibek Abduraximovlar o‘yma darvoza, eshiklar, ustunlar yasaganlar [7].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazm vohasi aholisining etnografik qiyofasi urf-odatlar, marosimlar, til, milliy taomlar va diniy qarashlar orqali namoyon bo‘luvchi murakkab madaniy kodlar tizimini tashkil etadi. Ushbu kodlar xalqning tarixiy xotirasi va etnomadaniy o‘zligini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

imrconf.com

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ismatullayeva N. Madaniy kod tushunchasi va uning nazariy asoslari. Results of National Scientific Research International Journal 2025 Volume 4| Issue 8. – B. 63.

2. Matyoqubova G.M. "Lazgi" raqsi: tarixi va tadqiqi monografiya - T.: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2023. – B. 140.

3. Raximov B. Komiljon Otaniyozov abadiyati. Urganch, 2017.

4. Samiyeva M. XORAZM MAQOMLARI YARATILISH TARIXI. Journal of Creativity in Volume: 2 Issue: 5 Year: 2024 Art and Design. – B. 20.

5. Matchonova A. Xorazm milliy taomlarining gastronomik turizmni rivojlantirishdagi o‘rni. Экономика и сотциум. 11(126) -2 2024. – Б. 287.

6. Qadamova F. “Xorazm dostonchilik maktablari. O‘zbek folklori rivojida Xorazm dostonchilik maktabining o‘rni“mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – B. 225.

7.https://handicraftman.uz/team/xorazm-viloyati-boshkarma-boshligi

imrconf.com